

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TARIX FAKULTETI FAKULTETI**

**“Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil  
dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va  
oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari”  
mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman**

**MAQOLALAR TO‘PLAMI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TARIX FAKULTETI



**“GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MUSTAQIL  
DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMI VA  
OILADAGI MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI”**

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman

**MAQOLALAR TO‘PLAMI**

2024-yil 25-26-aprel

**QO‘QON – 2024**

UDK: 304.2

**Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari.** Respublika ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami. – Qo'qon.: QDPI, 2024. 452 b

**Mas'ul muharrir:** f.f.n., dotsent Z.D.Boytemirova

**Tahririyat hay'ati:** f.f.n., dotsent M.M.Aminova  
y.f.n., dotsent N.Siddiqov  
f.f.f.d. (PhD) E.Sh.Oripov  
f.f.f.d. (PhD), dotsent D.B.O'rinboyev

**Taqrizchilar:** f.f.f.d. (PhD) Z.Y.Xamroqulov  
f.f.f.d. (PhD) O.I.Ortiqov  
f.f.f.d. (PhD) B.J.Shamsiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi №76-sonli buyrug'iga asosan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur to'plam globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan mahalliy tajribalar almashinuvini ta'minlash, ijtimoiy famlar sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashda Qo'qon davlat pedagogika institutining faol o'rnini belgilash hamda Qo'qon davlat pedagogika institutini Respublikamizning ilg'or oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy va uslubiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida tayyorlandi.

Ushbu to'plam tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, talabalar, shuningdek, keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

**Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari ma'suldirlar.**

yashash tarziga ega mahalliy aholining Rossiya imperiyasi tomonidan o'rnatilgan ijtimoiy boshqaruv tuzumi tomonidan qat'iy tartibda to'liq nazoratga olingan xalq sudlarida bunday ishlarni amalga oshirishi mumkin emasdi.

#### Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:

1. "Sadoi Farg'ona" (صدا فرغده) gazetasi. 1914. – 3-yanvar. – 1-son.
2. "Sadoi Turkiston" (صدای تورکستان) gazetasi. 1914. – 45-son.
3. "Shuhrat" (شهرت) gazetasi. 1904. – 11-dekbar. – 2-son.
4. "Taraqqiy" (ترقى) gazetasi. 1906. – 2-yanvar. – 1-son.
5. "Turkiston viloyatining gazeti" (ترجيمان ولايتى گزتى). 1870. – 31-avgust.
6. "Vaqt" (وقت) gazetasi. 1907. – 10-fevral. – 1-son.
7. "Tarjimon" (ترجيمان) gazetasi. 1889. – 1-son.
8. "Ulug' Turkiston" (الوغ تورکستان) gazetasi 1917. – 2-son.
9. "Xurshid" (خورشد) gazetasi. 1906. – 12-sentyabr.
10. "Turk eli" (تورک ايلي) gazetasi. 1914. – 4-oktyabr. – 1-son.
11. Gunoh va ayb ishlarni oshkara qilmoq xususida. ( آشکارا قيلمآغى خصوصييده گوناه و عيب ). Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 5439. 1897. 5-varaq. (اشلارنى).
12. O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 8-9-varaq.

UO'K: 94:342.56(575.1) "XIX/XX"

## QOZI(SUDYA)LAR HUKM CHIQARISH VA TERGOV QILISH TARTIBLARI TARIXIDAN

**Karimov Kaxramon Sadikovich**

*Dotsent, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti*

*Qo'qon, O'zbekiston*

E-mail: [qahramonjob876@umail.uz](mailto:qahramonjob876@umail.uz)

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan qozilik mahkamalari, huquqiy me'yoriy hujjatlar, notarial harakatlar tarixiga doir masalalar, mahalliy boshqaruvi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy, madaniy hayotga qilgan ta'siri, Turkiston o'lkasi qozilarning ish yuritish tartiblari, huquqiy asoslari va huquqiy qadriyatlarni qonunchilikda aks ettirilish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** meros, vorislik huquqi, xalq sudyalari (qozilari) saylanishi, merosdagi majburiy ulush.

**Каримов Кахрамон Садикович** *Доцент кафедры истории Коканского*

*государственного педагогического института, доктор философских наук, PhD*

[qahramonjob876@umail.uz](mailto:qahramonjob876@umail.uz)

### *Аннотация*

В данной статье рассмотрены судебные суды, действовавшие в Туркестане в конце XIX - начале XX века, правовое регулирование, вопросы, связанные с историей нотариальных действий, местного управления, их влияние на экономическую, политическую, социальную, религиозную, были рассмотрены культурная жизнь, порядок работы судей Туркестанской области, правовые основы и вопросы отражения правовых ценностей в законодательстве.

**Ключевые слова:** наследование, право наследования, выборов народных судей(казиев), обязательная доля в наследстве.

**Kaxramon Karimov**

*Associate Professor of History Department of Kokan State Pedagogical Institute,*

*Doctor of Philosophy in History, PhD [qahramonjob876@umail.uz](mailto:qahramonjob876@umail.uz)*

### Annotation

In this article, the judicial courts operating in Turkestan at the end of the 19th - the beginning of the 20th century, legal regulations, issues related to the history of notarial actions, local administration, their impact on economic, political, social, religious, cultural life, the working procedures of the judges of the Turkestan region, legal foundations and the issues of reflection of legal values in the legislation were considered.

**Keywords:** inheritance, right of inheritance, election of people's judges(kaziyev), mandatory share in inheritance.

### Kirish

Turkiston tarixi, uning ma'muriy idora boshqarish usuli, XIX asr oxiri va XX asr boshlari, Turkiston general gubernatorligi tuzilgandan keyin hududdagi boshqaruv usuli, sud idora mahkamasi tarixini o'rganishda Turkiston o'lkasi qozixonalarida tuzilgan vasiqalar, hukmlar, xatlar, tilxatlar, iqror xati, inoyatnoma, dalolatnoma(akt), da'volar, qozilik ishlari reestr daftarlari kabi hujjatlar asosiy manba bo'lib hisoblanali.

#### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mavzu tarixshunosligi bo'yicha mavjud adabiyotlardagi konseptual-metodologik yondashuvlarining mazmuniga qarab uch guruhga, ya'ni Rossiya imperiyasi hamda sovet hokimiyati yillarida yaratilgan adabiyotlar, mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar va xorijiy tadqiqotchilarning asarlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi.

Mavzuga tegishli ilmiy adabiyotlar hududiy va davriy tamoyillarga ko'ra 3 guruhga ajratib tahlil etildi: 1) Rossiya imperiyasi hamda sovet hokimiyati yillarida yaratilgan adabiyotlar; 2) mustaqillik yillaridagi ilmiy tadqiqotlar; 3) xorijlik mualliflarning asarlari.

*Rossiya imperiyasi hamda sovet hokimiyati yillarida yaratilgan adabiyotlar.* Sovet davrida Turkistondagi ma'muriy boshqaruv, sud tizimi faoliyati, xususan qozi va harbiy sudlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar XX asr boshlarida I.Ya.Foyniskiy<sup>105</sup>, A.A.Kaufman<sup>106</sup>, A.N.Dobrosmylov<sup>107</sup>, N.P.Ostroumov<sup>108</sup>, N.S.Likoshin<sup>109</sup> asarlarida qayd etilgan, lekin ko'rilgan masala mohiyati mustamlaka tuzum manfaatlari nuqtayi nazaridan yoritilgan.

<sup>105</sup> Foyniskiy I.Ya. Kurs ugolovnogogo sudoproizvodstva. (SPb.: 1902. – S. 68.). – Sankt-Peterburg: Izdaniye Alfa, 1996. – S. 605.

<sup>106</sup> Kaufman A.A. Pereseleniye i kolonizatsiya. Chast pervaya. Gosudarstvo i pereseleniye. 1861-1904 gg. – Peterburg: 1905. – S. 335.

<sup>107</sup> Dobrosmylov A.N. Tashkent v proshlom i nastoyaschem. – Tashkent: 1912. – S. 107.

<sup>108</sup> Ostroumov N.P. Islamovedeniye. Vvedeniye v Kurs Islamovedeniya. Tip. Turk. Gen-Gubernatora. – Tashkent: 1914. – S.181-183.

<sup>109</sup> Лыкoshin N.S. Pol jizni v Turkestane. Ocherki byta tuzemnogo naseleniya. Komissioner voyenno-uchebnykh zavedeniy. – Petrograd: Kolokolnaya, №14. 1916. – S. 363.



## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Keyingi yillarda ham X.S.Sulaymonova<sup>110</sup>, Sh.Urazayev<sup>111</sup>, N.Milshteyn<sup>112</sup>, F.Bakirov<sup>113</sup>, N.I.Abidova<sup>114</sup>, G.P.Sarkisyans<sup>115</sup> kabi mualliflarning tadqiqotlarida sud-huquq tizimining shakllanish tarixini yoritishga bag'ishlangan ilmiy ishlar yaratildi, ammo sovet davrida tanlangan mavzu kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan o'rganilganligi bois, ularga jalb etilgan manba va arxiv ma'lumotlari ham bir tomonlama talqin qilingan.

### Tahlil va natijalar

O'lkada qozilar tomonida amlaga oshiriladigan faoliyatni tartibga soluvchi "Usuli dasturul" amalga yozilgan tartiblarini Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan. General-leytenant, baron Vrevskiy. 1892-yilda dasturulamal narodniy sudyalarga tegili Toshmozor volosti xalq sudyalariga ko'rsatma 272-raqamli "Toshmozor volosti bo'yicha 1895-yilgi qarorlar 1-raqamdan 24-raqamgacha" kitobida keltirilgan yo'riqnomada quyidagilar keltirilgan.

1-qachonda narodniy sudyag'a arizachi kelsa sudya mazkur arizachi arzini eshitib, o'zining so'ramoqina tegishli ekaniga qaror topgan mazkur arizachini daftariga, "arizalar mazmuni" deb boshlangan varaqqa yozsa kerak. Oy va chisloli bilan va voqea qay vaqtda ariza berilganini va muddaoyi oliyaning nomlarini va ularning otlarining nomlarini va muddaoning muddaosini va ne to'g'ridan ariza qilganining mazmunini kuta qilib, yozib ayon qilsa kerak. Birda muddao bo'lgan odam o'zining daftariga yozilgan arizasiga qo'l qo'ysa kerak va yoki tamg'a solsa kerak yoki muhr bossa kerak. Va narodniy sudya o'z muhrini bosmog'i bilan mazkur muddaoning (da'voning) arizasining tasdiq qilsa kerak.

2-bul arizani yozib tamom qilg'ondin so'ng narodniy sudya bo'laturg'on mazkur arizani so'rovini qay chislog'a tayin qilinganini va haqiqat ham so'roqqa qanday qanday odamlarni chaqiraturg'onini mazkur varaqqa yozib, ba'di muddaog'a ma'lum qilsa kerak va javob kelar ham guvohlarni chaqiruv to'g'risida buyruq joriy qilsa kerak. Agarda guvohlarni chaqirilmoqlari lozim bo'lsa.

<sup>110</sup> Sulaymanova X.S. Istoricheskiy ocherk o sozdaniy sovetskix sudov v Uzbekistane // Sovetskoye gosudarstvo i pravo. 1949. № 3. – S. 61–69.; Ona je. K istorii organizatsii sovetskix sudov v Uzbekistane. – T.: Izdaniye Ministerstva yustitsii UzSSR. 1950. – S. 35.; Ona je. Sozdaniye i razvitiye sovetskogo suda v Turkestanskoy ASSR(1917–1924 gg.) – T.: Izd. AN. UzSSR., 1954. – S. 88.; Ona je. Sobraniye sochineniy. Tom. I. – T.: Fan, 1967. – S. 305.

<sup>111</sup> Urazayev Sh. Turkestanskaya ASSR i yee gosudarstvenno-pravovye osobennosti. – T.: Gosizdat, 1958. – S. 218.

<sup>112</sup> Milshteyn N. Iz istorii Turkestanskoy CHK. – Tashkent: Nauka, 1965. – S. 38.

<sup>113</sup> Bakirov F. Chor Turkistonida sud, shariat va odat. – T.: Fan, 1967. – B. 48.

<sup>114</sup> Abidova N.I. Sudy kaziyeve i osobennosti protsessy ix likvidatsii v Uzbekskoy SSR (1917–1928 gg.): Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – Tashkent: 1974. – S. 41.

<sup>115</sup> Sarkisyans G.P. Pravosudiye, arbitraj i prokurorskiy nadzor v SSSR. – Tashkent: Uzbekistan, 1978. – S. 55.

3- agarda ishning haqiqatig'a va hukmig'a hojatlik odamlarning barchasi kelib, ma'lum bo'lmasalar, sudya mazkur birinchi uzqiqa ishning so'rovi qay vaqt va kunga qoldirilganini yozib bayon qilsa kerak.

4-qachonda ish va da'voning haqiqatiga va so'roviga va hukmiga hojatlik odamlarning barchasi kelib, ma'lum bo'lsalar, mazkur sudya ish va da'voni so'rab qilgan hukmini mazkur bir necha va varaqning ikkinchi tarafiga yozadur birda sudyag'a lozimdirki, muddaoning arizasiga yozilgan raqamni o'zining qilgan hukmiga yozishiga va yil, oy va chislosini yozishiga va kimning arizasi sababli hukm bo'lganligini ham kimning ustidan ariza berilganini va ish da'vo so'ralib, haqiqat bo'lganida muddaoni va muddao oliyaning hozir bo'lib, qamataturgonlarini yoki ularning vakillari hozir turganlarini mazkur hukmiga yozadur.

5-hukmnomaning, ya'ni bitim xatning oxiriga qancha undirilishiga hukm qilinganini va hukm qilinganligi uchun tegishli bilq pulini kimdan talab qilinayotganligini mazkur sudya yozib, yana mazkur hukmga muhrini bosadi.

6-hukmni yozib tugatishi bilan narodniy sudya har ikki tarafga mazkur hukmni darhol ma'lum qiladi va muddaoni qo'llarini qo'yadurlar.

7-agarda har ikki taraf hukmning yuzasidan nusxa talab qilsalar, nusxa varaqning ikkinchi yarmiga yozilib, birda jazval (chizg'ich) chiziqdan kesilib, tarafing'a beriladi va mazkur tarafin mazkur nusxani yulqib (yirtib) olganliklarini rostligi uchun mazkur yarmi kesilib, yarmi daftarda qolgan varag'ining ostiga qo'l qo'yadurlar.

8-hukmdan so'ng narodniy sudya avvalgi taxtaning birinchi varag'iga "hukmdan spravka" deb yozilgan so'zining pastiga so'ralgan ishning muddoi qoidasiga yoki muddoi oliya qoidasiga hukm bo'lganligini yozadur, yana mazkur ishda biror odamni hibsga, qamoqqa bo'lubdurmu, agarda qamoqqa hukm bo'lsa kimni qamoqqa hukm bo'lganligini va qancha vaqtga qamoqqa hukm bo'lganligini yozadur va xazina foydasiga biror odamdan pul talab qilinaturg'on bo'lubdurmu, agarda bo'lsa kimdan qancha pul talab qilinayotganligini yozadur. Muddaodan va yoki muddaoiy oliyadan va yoki har ikki tarafidan pul talab qilurg'a hukm bo'lubdurmu. U yozilishi kerak. Yana narodniy sudya o'z foydasiga qancha bilaq (jarima) pulini hukm bo'lg'onun mazkur joyda aniq yozib, ushbu spravkani hukm qilg'uvchi sudya muhr bosib, mustahkam qiladur. Agarda ish da'voni ba'zanda narodniy sudya hukmi bo'yicha hech bir odamni jazog'a mustahiq qilmagan bo'lsa va biliq pulini olmaydigan bo'lsa, u vaqtda lozimdur tegishlicha hech kim jazoga hukm bo'lmaydi ham biliq puli olinmaydi, deb yozilishi kerak<sup>116</sup>.

<sup>116</sup> I-236-fond. 1-ro'yxat. 28-yig'ma jild, 2-varaq.



9-narodniy sudya da'vosi bor odamlardan so'rog'i ba'zanda hukm qilmasdan va hukmga qo'l qo'ymasdan avval biliq pulini olishga ixtiyoriy yo'qdur. Odat bo'yicha narodniy sudya biliqqa tegishli pulini tayin qilib, daftarga yozadi. Ba'zan har ikki taraf da'vogarga ma'lum qiladi. Agarda biliq puli to'lovga tegishli bo'lgan taraf narodniy sudyaga o'z ixtiyori bilan rozi bo'lib, mazkur pulni bermasa narodniy sudyaning hech birda ixtiyori yo'qdur. So'roq bilan mazkur pulni tortib, olmog'iga, lekin mazkur pulni talab qilinishi to'g'risida volostniy upravitelga yoki oqsoqolga sudya o'zi ma'lum qiladi.

Birda narodniy sudya mazkur volostniy upravitelning yoki oqsoqol undirgan pulni qo'lga qabs qilish bilan mazkur volost va oqsoqol huzurida kimdan, qancha pul olinganligini vaqti bilan tayin qilib, daftarga yozadi.

10-narodniy sudya hukm qilgan so'mning hech bir vaqt hukmni o'rniga keltiruv to'g'risida (ijro qilish ma'nosida) qoidasiga hukm bo'lgan odamga aralashib, talab qiluvchiga yordam qilmaydi. Foydasiga hukm bo'lgan odam narodniy sudyadan olgan hukm nusxasi bilan volostniy upravitelga yoki oqsoqolga murojaat qiladi. Va mazkur volostniy upravitel yoki oqsoqollar sudyaning hukmida tayin qilinganini undirib berishadi.

11-agarda bir odam narodniy sudyaning net kim amaldorning buyrug'iga qarshilik qilsa u talab qilgan ishni o'rniga keltirmasa yoki sudya ish da'vo so'rab turgan va qat'iy sudyani haqorat qilsa, narodniy sudyaning ixtiyori yo'qdur. Mazkur qarshilik yoki haqorat qilgan odamga o'zi jazo berishga asso lozimdur. Sudyaga mazkur odamning haqorati va qarshiligi to'g'risida uyezd hokimiga yoki uchastkovoy pristaviga ma'lum qilib, bildirishga.

12-asyoz. Narodniy sudyalar hukmlarini daftarga yozganlarida bir narodniy sudya hukmini daftarga yozuv to'g'risida yozilgan qoidalar bo'yicha ish qilib, yana quyida yozilib, bo'ladigan boblarga muvofiq amal qilsalar kerak.

13-agarda bir narodniy sudyaning hukmiga rozi bo'lmay asyetzga tushgan arizalar mazkur hukmga rozi bo'lmagan tarafning o'z qo'li bilan osiyozg'a berilmasdan uyezd hokimi yoki uchastkovoy pristavining qo'lidan va yoki volostniy upravitel orqali berilgan bo'lsa asiyoz narodniy sudyalarga tegishlidir. Mazkur arizalarni kimdan berilganligini "arizalar mazmuni" deb yozilgan joyning avvalgi varaqqa yozmoqqa, agarda ariza mazkur lar buyruq barobarida syezdg'a topshirilgan bo'lsalar bul suratda lozimdirki mazkur buyruqning chislo va nomerini ko'rsatib yozmoqg'a.

14-agarda bir sudya hukmiga rozi bo'lmagan ariza berilgan bo'lsa bu fursatda "arizalar mazmuni" degan joyga yozish kerak va hukmda mazkur norozi bo'lgan hukmni qaysi sudyaning hukmi ekanligini va qaysi vaqtda bo'lganligini va nechanchi raqamda bo'lganligini aniq bayon qilib, yozish kerak.

15-agarda ariza bir sudyaga tushmasdan Turkiston viloyatidagi xalqlarni boshqarish haqidagi Nizomning 244-bobiga muvofiq to'g'ri asiyoz narodniy sudyalarga tushsa bu taqdirda tegishli durasiyoz narodniy sudyalarga avval boshda diqqat bilan qarab bilish kerakki, mazkur ish, da'vo syezdning zudamoqina tegishli muyina muddaoi oliyadan so'rash kerakki, mazkur da'voni bevosita bir sudya ham so'ramasdan abrdon syezdda so'ralib, haqiqat bo'lishiga rozi bo'ladimi? Agarda rozi bo'lsa mazkurning rozi bo'lganligini "arizalar mazmuni" deb yozilgan varag'iga va asl hukm nomiga yozib, rost ekanligiga muddaoi oliya mazkurning imzo chekishi kerak.

16-bir narodniy sudya agarda hukmiga norozi bo'lib, arz berilgan bo'lsa mazkur da'vo to'g'risidagi ishning so'roviga aralashmasa kerak. Agar o'zi mazkur syezdda hozir va nozir bo'lsa ham.

17-syezd narodniy sudyalar ishi da'vo so'ralib, hukm qilinganda ikki tarafga teng bo'linib, hukm qilsalar bu fursatda predsdatel, ya'ni sadrinishin qay tarafga fikrini qo'shsa shu tarafning hukmi hukmdir<sup>117</sup>.

### Xulosa

Turkiston o'lkasining bu davrdagi xalq sudyalari va qozilik mahkamasi faoliyati tarixiga oid maxsus ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Turkiston o'lkasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalasi tarix fanida yaxlit tadqiqot shaklida o'rganish masalasi dolzarblini ko'rsatadi.

1. Islom huquqiy tizimi asosida boshqaruv tashkil etilgan hududlarda VIII-XIX asrlarda faoliyat yuritgan faqih va qozilar huquqiy va amaliy faoliyatlarining bosh mezoni mulkchilik, savdo-sotiq, ijtimoiy-ahloqiy munosabatlarni huquqiy jihatdan asoslash, tartibga solish va mustahkamlashga erishish bilan belgilanadi.

2. Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi davlati tarkibiga O'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga nisbatan ancha erta qo'shib olindi. Mustamlaka hukmronligi davrida Farg'ona vodiysining siyosiy hayotida Rossiya imperiyasiga bo'ysundirish masalasi asosiy o'rinni egalladi. Avvalgi mahalliy sulola o'lkani idora etishni davom ettirdi. Bu yerda Qo'qon xonligi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi va rus hokimiyatining o'rnatilishi ham dastlab jiddiy siyosiy o'zgarishlarga olib kelmadi. Mustamlaka boshqaruv Qo'qon xonligi ixtiyoridagi o'lka boshqaruvidan rus mutamlaka ma'murlari idora etgan Turkiston general-gubernatorligiga aylantirildi.

3. Ijtimoiy hayotda rus istilochilari hukmronligining dastlabki davrida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmadi. Rossiya imperiyasi hukmronligining keyingi yillarida Farg'ona vodiysida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, jumladan, ta'lim tizimi, yer egaligi va soliq

<sup>117</sup> I-236-fond. 1-ro'yxat. 28-yig'ma jild, 2<sup>a</sup>-varaq.

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

siyosatida mustamalaka ma'muriyati manfaatiga moslashtirish yo'lida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

4. Turkistonda tarixiy jarayonda shakllangan islom madaniyati va huquqiy qadriyatlar jamiyat hayotining turli jabhalari: sud-huquq, til, xalq ta'limi, din, axloq va ijtimoiy hayotning boshqa bir qator sohalaridagi an'analarga, mahalliy shart-sharoitlarga muvofiq tartibda kishilarning turmush tarziga kirib bordi. Bu jarayonlar bevosita xalq sudyalari–qozilar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

### **Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:**

1. Foyniskiy I.Ya. Kurs ugolovnogo sudoproizvodstva. (SPb.: 1902. – S. 68.). – Sankt-Peterburg: Izdaniye Alfa, 1996. – S. 605.
2. O'z MA. I-236-fond. 1-ro'yxat. 28-yig'ma jild, 2-2<sup>a</sup>-varaq.
3. Kaufman A.A. Pereseleniye i kolonizatsiya. Chast pervaya. Gosudarstvo i pereseleniye. 1861-1904 gg. – Peterburg: 1905. – S. 335.
4. Dobrosmylov A.N. Tashkent v proshlom i nastoyashem. – Tashkent: 1912. – S. 107.
5. Ostroumov N.P. Islamovedeniye. Vvedeniye v Kurs Islamovedeniya. Tip. Turk. Gen-Gubernatora. – Tashkent: 1914. – S.181-183.
6. Likoshin N.S. Pol jizni v Turkestane. Ocherki byta tuzemnogo naseleniya. Komissioner voyenno-uchebnix zavedeniy. – Petrograd: Kolokolnaya, №14. 1916. – S. 363.
7. Sulaymanova X.S. Istoricheskiy ocherk o sozdanii sovetskix sudov v Uzbekistane // Sovetskoye gosudarstvo i pravo. 1949. № 3. – S. 61–69.; Ona je. K istorii organizatsii sovetskix sudov v Uzbekistane. – T.: Izdaniye Ministerstva yustitsii UzSSR. 1950. – S. 35.; Ona je. Sozdaniye i razvitiye sovetskogo suda v Turkestanskoy ASSR(1917–1924 gg.) – T.: Izd. AN. UzSSR., 1954. – S. 88.; Ona je. Sobraniye sochineniy. Tom. I. – T.: Fan, 1967. – S. 305.
8. Urazayev Sh. Turkestanskaya ASSR i yee gosudarstvenno-pravovye osobennosti. – T.: Gosizdat, 1958. – S. 218.
9. Milshteyn N. Iz istorii Turkestanskoy CHK. – Tashkent: Nauka, 1965. – S. 38.
10. Bakirov F. Chor Turkistonida sud, shariat va odat. – T.: Fan, 1967. – B. 48.
11. Abidova N.I. Sudi kaziyev i osobennosti protsessa ix likvidatsii v Uzbekskoy SSR (1917–1928 gg.): Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – Tashkent: 1974. – S. 41.
12. Sarkisyans G.P. Pravosudiye, arbitraj i prokurorskiy nadzor v SSSR. – Tashkent: Uzbekistan, 1978. – S. 55.

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

|                                                         |                                                                                                                       |
|---------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 392-395                                                 | OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA G'OYAVIY TARBIYANING USTUVOR YO'NALISHLARI                                              |
| Yuldasheva Matluba Munavarovna                          |                                                                                                                       |
| 396-399                                                 | SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTI RIVOJLANISHIDA MAFKURAVIY TARBIYA MASALALARI                                          |
| Xodjayev O.Sh., Maxmudova Nozaninxon Nuriddin qizi      |                                                                                                                       |
| 400-402                                                 | O'ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO KONSTRUKTIVIZMNING ROLI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI                           |
| Xodjayev Olimxon Shavkatovich                           |                                                                                                                       |
| 403-406                                                 | GLOBALASHUV JARAYONIDA IJTIMOIIY FAOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MAFKURAVIY JARAYONLARNING AHAMIYATI                       |
| Xodjayev O.Sh.                                          |                                                                                                                       |
| 407-410                                                 | OILADA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI                                                       |
| Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich, Juraboyeva Sadoqatbonu |                                                                                                                       |
| 411-414                                                 | AMIR TEMUR HARBIY SA'NATI TARIXINI O'RGANISHDA "INDIVIDUAL DARS" SHAKLI ORQALI O'QUVCHILAR FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH |
| Рашидахон Муқимовна Аҳмедова, Тохир Ботиров             |                                                                                                                       |
| 415-420                                                 | MIROVOY SUDLARI FAOLIYATIDA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI                                                     |
| Karimov Kaxramon Sadikovich                             |                                                                                                                       |
| 421-429                                                 | QOZI(SUDYA)LAR HUKM CHIQARISH VA TERGOV QILISH TARTIBLARI TARIXIDAN                                                   |
| Karimov Kaxramon Sadikovich                             |                                                                                                                       |
| 430-436                                                 | QO'QON XONLIGIDA QOZILIK LAVOZIMIGA TAYINLASH MASALALARI                                                              |
| Karimov Kaxramon Sadikovich                             |                                                                                                                       |
| 437-443                                                 | TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARINING BOSHLANISHI                                                                   |
| Xaydarova Dilorom Abduxamidovna                         |                                                                                                                       |
| 444-448                                                 |                                                                                                                       |